



## SHUMG'YA O'SIMLIGI

Reyimbayeva Matluba Nuriddin qizi

Urganch davlat universiteti talabasi

<https://www.doi.org/10.37547/ejar-v03-i02-p1-14>

### ARTICLE INFO

Received: 26<sup>th</sup> January 2023

Accepted: 05<sup>th</sup> February 2023

Online: 06<sup>th</sup> February 2023

### KEY WORDS

Yashil belbog', shumg'ya o'simligi, shumgiyohdoshlar oilasi.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada shumg'ya o'simligining foydali va zararli tomonlari hamda "Yashil belbog" loyihasi haqida yoritib berilgan.*

O'tgan asrning 20-yillariga qadar Buxoro xalqi Qizilqum shamoli va qum bo'ronlaridan qattiq aziyat chekishgan. 1925-yildan boshlab cho'l qumlarini ko'chishi va bo'ronga qarshi hukumat darajasida kurash boshlangan va ko'rilgan chora-tadbirlarning amaliy natijasi sifatida 1941-yilga kelib, Buxoro vohasi atrofida (hududning shimoli va shimoli-sharqiy qismida) uzunligi 120 kilometr, kengligi 1-3 kilometr bo'lgan "Yashil belbog" hosil bo'lgan. Saksoqul, qandim, cherkez, yulg'unlardan iborat bo'lgan o'rmonzor yashil devor vazifasini bajargan.

"Yashil qalqon"ni yaratishi ishlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 4 maydagi 357-F-sonli Buxoro viloyatining cho'l hududlarida "Yashil qalqon" himoya o'rmonzorlari, dorivor shumg'ya (sistanxe) va isiriq o'simliklari plantatsiyalarini barpo etish hamda xom ashyosini dastlabki qayta ishlashni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida farmoyishi 11 qabul qilingandan so'ng yana jonlandi. Unga ko'ra, Buxoro viloyatining cho'lga tutash sug'oriladigan yerlarini va aholi yashash manzillarini garmisel shamollari ta'siridan himoyalash, tuproq eroziyasini oldini olish, qumlarni ko'chishini bartaraf etish va mintaqada mo'tadil mikroiklim sharoitini yaratish, ekologik holatni yaxshilash, o'rmonlardan samarali foydalanib, dorivor shumg'ya va isiriq plantatsiyalaridan iborat jami 212 ming gektar maydonda "Yashil qalqon" himoya o'rmonzorlarini barpo etish haqida so'z boradi. Loyihani amalga oshirishi uchun xalqaro moliya institutlari va donor tashkilotlarning 10 mln. dollarlik grant mablag'larini jalb etish ko'zda tutildi.

Shu yildan e'tiboran, BMT Taraqqiyot Dasturi (BMTTD), Global ekologik jamg'arma va «Davergeodezkadastr» qo'mitasi bilan hamkorlikda Buxoro viloyatida yangi o'rmon barpo etish ishlari boshlandi. Natijada, Qorako'l tumanining Qorako'l davlat o'rmon xo'jaligi hududida 1000 gektar, Qorako'l ixtisoslashgan davlat o'rmon xo'jaligi hududida esa 300 gektar, jami 1300 ga maydonda qora saksavul niholi qandim va cherkez o'simliklarining urug'i bilan birgalikda ekildi. Shuningdek, "Yashil qalqon" barpo qilish maqsadida Shofirkon, Jondor,



Qorako'l, Romitan, Peshku, G'ijduvon tumanlaridan jami 187790 ga maydon ajratilib, viloyat hokimining 2018 yil 20 avgustdagi 535-sonli qarori bilan tasdiqlandi.

Shumgiyohdoshlar oilasi 12 ta turkum, 140 dan ortiq turni o'z ichiga oladi. Ular asosan shimoliy yarim sharning o'rta iqlimli mintaqalarida, tropiklarda va janubiy yarim sharda uchraydi. Oila vakillari har hil o'simliklarning ildizlarida parazitlik qilib, yashovchi xlorofilsiz bir yoki ko'p yillik o't o'simliklardir. Poyasi sarg'ish, oq etli, oddiy yoki shoxlangan, bezli tuklar bilan qoplangan. Barglari juda qisqargan, tangachasimon poyaga ketma-ket joylashgan.

To'pguli shingil yoki boshhoqsimon gullari noto'g'ri. Ikki jinsli besh a'zoli. Gulkosachabarglari 4-5 ta bo'lib birikib o'sgan. Gultojbarglari qo'shilib ikki labni hosil qiladi. Changchilari 4ta, ulardan ikkitasi uzunroq chang ipiga ega. Urug'chisi ko'pincha 2ta mevbargchani qo'shilishidan hosil bo'ladi. Tugunchasi ustki. Mevasi ko'sakcha. Urug'lari mayda bitta ko'sakchasida soni 2000-2500 ta gacha urug' bo'ladi. Tuproqda urug'ining unib chiqish qobiliyati 8-12 yilgacha saqlanadi.

Bu oila vakillari o'z tarkibida oshlovchi moddalar va glikozidlarni saqlaydi. Ba'zi turlari xalq meditsinasida ishlatiladi. Poliz ekinlari va boshqa agrofittosenozlarda uchraydigan eng xavfli begona o't hisoblanadi. Shumg'iya, shumgiyoh — shumg'iyadoshlar oilasiga mansub bir yoki ko'p yillik xlorofillsiz tekinxo'r o'simliklar turkumi. Mo'tadil va subtropik mintaqalarda 150 dan ortiq turi tarqalgan. O'rta Osiyoda 7 dan ortiq turi — kungaboqar Shumg'iyasi, sershox Shumg'iyasi, karam Shumg'iyasi, misr Shumg'iyasi va boshqalar sabzavot va poliz ekinlari, kungaboqar, kartoshka, pomidor va boshqalar ekinlar dalalarida o'sadi. Poyasi ochqo'ng'ir, sariqpushti yoki ko'kimtir etli, bo'yi 50 sm gacha. Ildizi kalta etli to'qima (gaustoriy) ga aylangan. Gullari ro'vaksimon to'pgulga yig'ilgan, chetdan changlanadi, mevasi ko'p urug'li ko'sakcha. Shamol va suv orqali tarqalib, 15 yildan keyin ham unib chiqishi mumkin. Har bir turi bir xil o'simlik turida tekinxo'rlik qiladi. Poliz ekinlari, kungaboqar, pomidor, tamaki va boshqalar o'simliklarga katta zarar yetkazadi. Shumg'iya o'simliklar ildiziga so'rg'ichlari bilan yopishib oladi va undan suv, oziq moddalarni so'radi. Natijada o'simlik kuchsizlanadi, mevasining ta'mi yomonlashadi, hosiddorlik 50—70% ga kamayadi yoki o'simlik nobud bo'ladi. Kurash choralari: Shumg'iya urug'i pishmasdan oldin o'tab tashlanadi, gerbitsidlar sepiladi, biologik kurash usulida lichinkasi Shumg'iya urug'i bilan oziklanadigan fitomiza pashshasidan foydalaniladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Shumg'iya o'simligi cholli hududlarda juda ko'p tarqalgan bo'lib, buning sababi bu o'simlik qum ko'chishini oldini olish uchun samarali yordam berishidir.

## References:

1. Qahramonov.O.O. Buxoro viloyat yaylovlarini yaxshilash chora-tadbirlari // Qishloq xo'jaligida klaster tizimini rivojlantirish: tajribalar, natijalar va istiqbolli yo'nalishlar respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallar to'plami. Buxoro. 2019.
2. "Yashil qalqon" himoya o'rmonzorlari tashkil etiladi. [Elektron manba] - URL: <https://hi.in.facebook.com/huquqburch/posts/413088709118353>
3. [www.google.com](http://www.google.com) internet sayti